

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral

TIBBIYOTDA QO'LLANILADIGAN INDIVIDUAL FITOPREPARATLAR VA ULARNING TARKIBI

Zahiriddinov I.I

Namangan davlat universiteti Biotexnologiya kafedrası o'qituvchisi

E-mail: ilyosbek1616@icloud.com

Abdulatifova O.N

Namangan davlat universiteti Biotexnologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

E-mail: abdulatifovaoydina@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola *Digitalis purpurea*, *Sophora japonica*, *Plantago*, *Althaea officinalis* dorivor o'simliklaridan olinadigan, tibbiyotda keng qo'llaniladigan individual fitopreparatlar turlari va tarkibi haqida bo'lib, qaysi kasalliklarni davolashda ishlatilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Dorivor o'simlik, biofaol modda, fitopreparat, individual, tibbiyot, digoksin, rutin, plantoglutsid, mukaltin.

KIRISH. So'nggi yillarda fitopreparatlarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu ularning samaradorligi va xavfsizligi haqidagi ilmiy tadqiqotlar sonining ko'payishi bilan bog'liq. Ushbu maqolada fitopreparatlarning turlari, qo'llanilishi, afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, ularni ishlab chiqarish va standartlashtirish masalalari ko'rib chiqiladi. Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida ⁱ Maqolaning asosiy maqsadi shuki, hozirgi kunda jadallik bilan rivojlanayotgan va ommaga keng tatbiq qilinayotgan kimyoviy dori vositalaridan iloji boricha cheklanish (o'zini himoya qilish) va ularning o'rniga tabiiy dorivor o'simliklardan olinadigan fitopreparatlardan foydalanishni yo'lga qo'yishdir. Ya'ni kimyoviy dori vositalari organizmning bir organi uchun davolash xususiyatiga ega bo'lsa, boshqa bir organning kasallanishiga olib kelmoqda. Kimyoviy dori vositalarini ayniqsa, oshqozon-ichak organlari uchun salbiy ta'sir kuchi juda yuqori bo'lib, hozirgi kunda oshqozon-ichak kasalliklari bilan og'rigan bemorlarning soni ortib bormoqda. Shuning uchun ham hozirgi kunda nafaqat xalq tabobatida, balki zamonaviy tibbiyotda ham individual fitopreparatlardan keng ko'lamda foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Buning sababi shuki, fitopreparatlardan faqatgina kasallikni davolashda emas, balki uni oldini olishda ham qo'llash mumkin. Ya'ni profilaktika jarayonini olib borish mumkin. Ularning inson salomatligi uchun hech qanday salbiy ta'siri va oqibati bo'lmaydi. Shu sababli ham fitopreparatlar va individual fitopreparatlar inson salomatligi uchun manfaatli hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1."Dorivor o'simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlashni tashkil etish, dorivor o'simliklarning plantatsiyalarini barpo etishni qo'llab-quvvatlash, shuningdek,

kasalliklarni oldini olish va davolashda dorivor o'simliklarni keng qo'llash maqsadida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2022-yil 20-mayda PQ-251-sonli qarori qabul qilindi. Respublikada yillarda dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o'simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

2. M. Mamajanova "Fitopreparatlarni nazorat qilish"(o'quv-uslubiy majmua) Namangan-2024 230 bet. Ushbu majmuada dorivor o'simliklardan olinadigan fitopreparatlar turlari va ularning sifatini qanday tartibda nazorat qilish haqida keng miqyosda ham nazariy ham amaliy ishlar haqida ma'lumot berib o'tilgan.

3. M. Mamajanova "Fitopreparatlar texnologiyasi" (o'quv qo'llanma) Namangan-2024 224 bet. Bu o'quv qo'llanmada dorivor o'simliklardan olinadigan fitopreparatlarni tayyorlash texnologiyasi hamda ularni saqlash tartiblari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

4. R.H.Ayupov "Dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish" (3 qismli kitob). Ushbu kitobda dorivor o'simliklar haqida keng ma'lumot berib o'tilgan. Hamda ularni qanday kasalliklarga qo'llash usullari Ya'ni foydalanish haqida yozib o'tilgan.

5. N.D.Kodirov, E.S.Baymuradov "Tarkibida polisaxarid saqlovchi dorivor o'simliklar va mahsulotlar" Samarqand-2023. Bu o'quv qo'llanma polisaxarid biofaol moddasini saqlovchi dorivor o'simliklar va ularning turlari haqida bo'lib, ulardan ishlab chiqariladigan mahsulotlar to'g'risida batafsil ma'lumot berib o'tilgan.

ASOSIY QISM

Dorivor o'simliklardan olinadigan fitopreparatlar orasida individual fitopreparatlar ham bo'lib, ular zamonaviy tibbiyotda keng qo'llaniladi. Ularning tarkibi tabiiy bo'lganligi uchun zamonaviy tibbiyotda ahamiyatli hisoblanadi. Individual fitopreparatlarga digoksin, rutin, plantoglutsid, mukaltin va shu kabi boshqa fitopreparatlar kiradi.

Digoksin preparati *Digitalis purpurea* o'simligining yerustki qismidan olinadi. *Digitalis purpurea* tarkibida digoksindegitoksin biofaol moddasi bo'lib, bu biofaol modda o'simlikning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu modda yordamida digoksin preparati olinib, u zamonaviy tibbiyotda surunkali qon-tomir kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Digoksin preparatining yordamchi moddalari qand, kartoshka kraxmali, glukoza, mineral moyi, talk va magniy stearati hisoblanadi. Uning tashqi ko'rinishi oq tabletka shaklida bo'lib, 0,25 mg dan.



Rutin preparati *Sophora japonica* o'simligining ochilmagan g'unchasidan olinadi. Uning biofaol moddasi kversetin-3-rutin glikozidi bo'lib, bundan olingan fitopreparat qon-tomir o'tkazuvchanligini yaxshilashda, aterosklerotik holatda(qon-tomirini zaiflashishi)da zamonaviy tibbiyotda keng qo'llaniladi. Uning tashqi ko'rinishi sariq-yashil rangli mayda kristal kukun 500 mg dan kapsula ko'rinishida bo'ladi.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

III son, Fevral



Plantoglutsid preparati *Plantago* o'simligining bargidan olinadi. Uning biofaol moddasi polisaxarid hisoblanib, plantoglutsid preparatining asosiy tarkibiy qismi. Bu fitopreparat asab kasalligi va ko'zga qon quyilishini davolashda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Bu fitopreparatning tashqi ko'rinishi granula shaklida bo'lib, 1 yoki 2 gr dan.



Mukaltin preparati *Althaea officinalis* o'simligining yerustki qismidan olinadi. O'simlik biofaol moddasi polisaxarid bo'lib, fitopreparatning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu fitopreparat balg'am ko'chiruvchi, yo'talni davolovchi xususiyatga ega. Bu preparatning tashqi ko'rinishi kulrang tabletka shaklida bo'lib, 50 mg dan.

Xulosa

Hozirgi kunga kelib farmatsevtika sanoatida dori vositalarini ishlab chiqarish uchun davlat farmakopiyasida belgilangan 112 ta dorivor o'simliklardan foydalanilmoqda. Ushbu dorivor o'simliklarning ayrimlaridan zamonaviy tibbiyotda keng qo'llaniladigan individual fitopreparatlar ham ishlab chiqariladi. Bu individual fitopreparatlarning ustun jihati shundaki, tarkibida kimyoviy va sintetik moddalari mavjud bo'lgan dorilarga nisbatan tabiiy hisoblanib, inson organizmi uchun nojo'ya ta'sirlari yo'q yoki juda kam miqdorda bo'ldi. Shu sababli hozirgi kunda dorivor o'simliklarga bo'lgan ehtiyoj va talab juda yuqori bo'lib, ulardan tayyorlangan individual fitopreparatlar ko'plab bemorlarga tavsiya etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.H.X. Xolmatov, O'.A.Ahmedov "Farmakognoziya" "Cho'lpon" Toshkent – 2008, 138 bet
2. N.D.Kodirov, E.S.Baymuradov "Tarkibida polisaxarid saqllovchi dorivor o'simliklar va mahsulotlar" Samarqand-2023
3. Zahridinov I.I., G'ulomova G. M. Abdubannayeva X.G' "Dorivor zubturm o'simligining zamonaviy tabobatda qo'llashning samarali usullari"
4. Abdulatifova O. N. et al. TUPROQ HOLATI VA UNDA BORADIGAN JARAYONLARNI YAXSHILASHDA MIKROSUVO 'TLARINING O 'RNI, BIOGEOTSENOZDAGI AHAMIYATI //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 89-94.
5. Usmonov T. Z. et al. CULTIVATION OF MELISSA OFFICINALIS L. PLANT SEEDLINGS UNDER DIFFERENT CONDITIONS //Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 123-130.
6. M.Mamajanova "Fitopreparatlar texnologiyasi" Namangan -2024 224 bet

INTERNET MA'LUMOTLAR

5. <https://new.tdpu.uz/>

6. <https://e-library.namdu.uz/>

7. www.ziyouz.com

ⁱ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 20.05.2022 yildagi PQ-251-son